



ISSN (E) - 2181-1334

№ 25 30.12.2021



# UZACADEMIA

ILMIY-USLUBIY JURNAL

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL



OPEN  ACCESS



"ACADEMIA SCIENCE"  
ILMIY TADQIQOTLAR MARKAZI  
FARG'ONA VILOYATI, FARG'ONA SHAHRI  
ISTE'DOD KO'CHASI 1-UY, 1-XONADON  
WWW.ACADEMIASCIENCE.UZ







*“ACADEMIA SCIENCE” ILMIY-TADQIQOTLAR MARKAZI*

# UZACADEMIA

**ILMIY-USLUBIY JURNALI  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL**

**ISSN (E) – 2181 - 1334**

**BARCHA SOHALAR BO‘YICHA**

**VOL 2, ISSUE 1 (25), DECEMBER 2021**

**PART - 1**



**I<sup>W</sup>I WORLD of  
JOURNALS**



[www.academiascience.uz](http://www.academiascience.uz)



## TAHRIRIYAT

### Editor in chief

Eshmatov Gayratjon Marupovich

### Executive Secretary

Ravshanjon Abdullayev

*He is a history teacher at Baghdad District*

*8 Secondary School*

### Preparing for publishing

Khalikov Mukhriddin Tavakkaljon ugli

*Fergana State University*

### Bosh muharrir

Eshmatov G'ayratjon Ma'rupovich

### Mas'ul kotib

Ravshanjon Abdullayev

*Bag'dod tumani 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi*

### Nashrga tayyorlovchi

Holiqov Muhridin Tavakkaljon o'g'li

*Farg'ona davlat universiteti*

## TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

### Sultonali Mannopov

*O'zbekiston xalq artisti, professor*

### Eshmetov Izzat Do'simbatovich

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, texnika fanlari doktori, professor*

### Matibaev Taspolat Baltabaevich

*Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), Professor, Turon FA Akademik*

### Abdullayev Muzrobjon Gulamovich

*Andijon davlat universiteti, professor*

### Akramova Shahnoza Abrorovna

*Milliy gvardiya Xarbiy-texnika instituti Psixologiya va pedagogika kafedrasi mudiri,*

*Pedagogika fanlari doktori, dotsent*

### Arslanov Sharafutdin Sultanovich

*kimyo fanlari doktori, professor*

### Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

### Oripov O'rolboy Ahmedovich

*Navoiy davlat pedagogika instituti, PhD*

### Fazliyeva Zebo Kamarbekovna

*O'zbekiston davlat Xoreografiya Akademiyasi, dotsent*

### Akbarov Qobuljon Yakubovich

*Qo'qon davlat pedagogika instituti, tarix fanlari nomzodi*

### Azimov Baxtiyor Ganievich

*O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

### Ziyayev Avazjon Ixtiyorovich

*Qo'qon davlat pedagogika instituti, filologiya fanlari doktori*

### Xusanova Xayriniso Tayirovna

*O'zMU, sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent*

### Smaylova Gulmari Yuldashevna

*QRXTHQTMO hududiy markazi, dotsent*

### Bazarov Otabek Odilovich

*Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD*

### Popov Dmitriy Vladimirovich

*Andijon mashinasozlik instituti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

### Raximova Gulchexra Sobirjonovna

*Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD*

### Bazarov Oybek Odilovich

*filologiya fanlari nomzodi*

### Xo'jayev Vaxobjon Umarovich

*Qo'qon davlat pedagogika instituti, kimyo fanlari doktori, professor*

### Toshtemirov Otabek Abidovich

*Farg'ona politexnika instituti*

### O'rinboyev Davlatjon Baxtiyorovich

*Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori*



## MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	TEACHING ENGLISH FOR LAW STUDENTS USING MODERN METHODS OF COMMUNICATION Akmal Davranov Akramjonovich	6
2.	DAUN BOLALAR NUTQINI KORREKSIYALASHNING ZAMONAVIY USULLARI Yunusov Mirsaid Xudayarovich Mohichehra Qodirova	12
3.	INTRINSIC AND EXTRINSIC MOTIVATION IN AN UZBEK ELL LEARNER Sanjar Djalalov	18
4.	O'TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA QO'LLANGAN SOMATIK FRAZELOGIZMLARNING XUSUSIYATLARI Ma'mura Isakova	24
5.	"TANAZZUL" ROMANIDA XUDOYORXON OBRAZI TALQINI Mamanova Dilnoza Uktamovna	28
6.	AMIR TEMUR – BUYUK DAVLAT ARBOBI Ibragimov Alisher Bazarbayevich, Musayev Ravshan Mansurovich, Marimov Muzaffar Erkinovich	32
7.	ЧИЗИҚСИЗ ЖАРАЁНЛАРНИ ВИЗУВАЛЛАШТИРИШ Мухаммадиев Жаббор Ўрақович Қудратова Малоҳат Шохимардоновна	35
8.	GAZETA SARLAVHALARIDA FE'LLARNING QO'LLANILISHI Nematullayeva Sojida Xusnitdin qizi	40
9.	O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIK MUAMMOLARNING O'RGANILISHI Raximjon Samijonovich Kaxxorov	44
10.	TARIX, HUQUQ, TARBIYA FANLARI OYLIGINI O'TKAZSHNING SAMARADORLIGI Salomova Nigora, Safarova Shoira, Pulatova Mahliyo	56
11.	BENEFITS OF FOREIGN LANGUAGES Sabirova Sadoqat Davlatmuratovna Sobirova Xilola Maxmudjanovna Karimova Zuhra Do'simmatovna	60
12.	Ikramova Shaxnoza Jabboraliyevna ABU NASR FOROBIY ASARLARI VA ULARDA AHLOQIY-TARBIYAVIY QARASHLAR	62
13.	МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИ ТАЙЙОРЛОВ ГУРУHI TARBIYALANUVCHILARINI SAVODXONLIKKA O'RGATISHNING ANAMIYATI Amirova Visola Oybek qizi	66
14.	ЧҚБТ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ҲАРБИЙ ТОПОГРАФИЯНИНГ ЎРНИ. ЖОЙНИНГ ЖАНГДАГИ АҲАМИЯТИ. ЖОЙДА ХАРИТАСИЗ МЎЛЖАЛ ОЛИШ Ахмеджанов Аъзамжон Қосимжон ўғли	70
15.	ИЗУЧАТЬ ЭЛЕКТРОФИЗИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ГЛУБОКИХ ЦЕНТРОВ ОБРАЗОВАННЫХ РЕДКОЗЕМЕЛЬНЫМИ ЭЛЕМЕНТАМИ Кадирова Гулшаной Эркинжон кизи Гофурова Дилнозахон Носиржон кизи	80

16.	БОЛАЛАР МУСИҚА ВА САНЪАТ МАКТАБЛАРИДА “МУСИҚА АДАБИЁТИ” ФАНИНИНГ ЎҚИТИШ ВА ЎЗЛАШТИРИШ ЖАРАЁНИ Собирова Гулҳаё Ақтамжоновна Т.Б.Ғофурбеков	84
17.	ИСЛОҲАТЛАР ЖАРАЁНИДА ЁШЛАР МАСАЛАСИ Ш.А.Эрматов Б.И. Ғаниев	94
18.	AHSIKENTLIK ALLOMALAR YOZMA MANBALARDA Mamadjonova Shahlo To‘uchiboy qizi	98
19.	ОСОБЕННОСТИ СТРОЕНИЯ И НЕФТЕГАЗОНОСНОСТЬ ЮРСКИХ «ПЕСЧАНЫХ» ГОРИЗОНТОВ СУДОЧЬЕГО ПРОГИБА Бехзод АБДУРАХМАНОВ Бекзод АЛЛАЯРОВ Хайитов О.Г.	102



# DAUN BOLALAR NUTQINI KORREKSIYALASHNING ZAMONAVIY USULLARI

**Yunusov Mirsaid Xudayarovich**

JDPI Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

**Mohichehra Qodirova**

Defektologiya (Logopediya) yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya** Daun bolalarda nutqni qay tartibda chiqarish zarur? Biz Daun bolalarni qo'l motorikasini yaxshilab olishimiz, ular narsa predmetlarni tuta oladigan darajaga yetib kelgandan so'ng, ularda nutqni rivojlantirishni boshlashimiz kerak. Daun bolalar juda sust yoki giperaktiv bo'lishadi. Shu sabab Daun bolalarni qiziqishilarini inobatga olgan holda mashg'ulotlarni o'yin faoliyati bilan olib borganimiz ma'qul. Ushbu maqolada siz Daun bolalarning nutqini shakllantirishning har xil zamonaviy usullari bilan tanishib chiqasiz.

**Kalit so'zlar:** trisomiya, mongolizm, purin alkaloidlari, psixonevrolog, qum terapiyasi, mikrafon, art terapiya, g'ayritabiiy qobiliyat.

Daun sindromi 21-xromosoma (trisomiya)ning uchinchi nusxasining to'liq yoki bir qismi mavjudligidan kelib chiqadigan genetik kasallikdir. Odatda u jismoniy o'sishning kechikishi, yengil va o'rta darajadagi aqliy zaiflik hamda xarakterli yuz tuzilishlari bilan bog'liq. Daun sindromiga chalingan katta yoshlilarning o'rtacha IQ darajasi 50 %ni tashkil qiladi, bu 8-9 yoshli bolaning aqliy qobiliyatiga teng, ammo bu juda katta farq qilishi mumkin.

Daun sindromi bizga 1866 yildan beri ma'lum. Britaniyalik shifokor **Lengdan Daun** bir qizda kasallikni kuzatgan va uni "Mo'g'ullik" deb atagan. Ammo osiyolik olimlar bu kasallikni "mongolizm" deb atagach, kasallikni kashf etgan olim sharafiga "Daun sindromi" nomi berilgan. Daun bolalar bir-biriga o'xshash bo'lib, ularning stereotiplari bir xil. Boshqacha aytganda, ular past bo'yli, aqli zaif, boshlari kichik va yumaloq, yuzlari tekislangan (1-rasm). Yonoqlar yuzning tekislangan fonida biroz ochiladi. Ko'zlari cho'zilgan va kichik, yonog'i qiya, ko'z burchagidagi teri ajinlangan, og'iz yarim ochiq, til katta, qorin shishgan, tishlari siyrak, mushaklar va bo'g'imlar yaxshi rivojlanmagan. Ko'pgina bolalarda ko'rsatkich barmog'i va bosh barmog'i orasidagi masofa juda katta bo'ladi. Daun sindromi bo'lgan odamlarda o'sish sekinlashadi. Bu ko'rsatkich erkaklar uchun o'rtacha 154 sm, ayollar uchun 142 sm. Ya'ni ular mongoloid irqiga mansub odamlarga o'xshaydi. "Mo'g'ullik" nomi ham shu sababdan qo'llaniladi. Ushbu sindromga ega bo'lgan odamlar yoshi ulg'aygan sari semizlik xavfini oshiradilar.

Daun bolalarda ko'rishning buzilishi ham kuzatiladi. Daun sindromi bo'lgan chaqaloqlar o'tirishni va yurishni kech o'rganadilar, chunki ularning normal skeleti rivojlanishi buzilgan bo'ladi. Ovqat hazm qilish va qon tomir tizimlarining jiddiy patologiyalari mavjud. Immuniteti zaif, u kasalliklarga ko'proq moyil bo'ladi, ayniqsa xavfli o'smalarni rivojlanish xavfi katta.



**1-rasm.**

Miyaning zaiflashishi va miya rivojlanishining zaiflashishi aqliy zaiflikka, shuningdek, harakatlarning nomuvofiqlashishiga olib keladi. Erkaklar bepusht, ayollar esa ba'zan tug'ishlari mumkin. Daun sindromi bilan og'rigan bolalarning ko'pchiligida buyrak va yurakda tug'ma nuqsonlar mavjud bo'ladi. Aqliy zaiflik daun bolalarning barchasiga xosdir. Daun sindromli bolalar juda mehribon bo'lishadi. Ular odamlar bilan tezda muloqotga kirishishadi. Ular hatto o'zlariga ham g'amxo'rlik qilishlari mumkin. Daun bolalar, boshqa oddiy bolalar kabi she'r va ertaklarni o'rganadilar va yodlaydilar.

*Daun sindromi irsiy kasallik bo'lib, asosan 40 yoshdan keyin homilador bo'lgan va irsiy xromosoma o'zgarishlariga ega bo'lgan ayollarning chaqaloqlarida uchraydi. Daun sindromli bola tug'ilish ehtimoli 35-40 yoshdagi ayollarda 10 barobar, 40 yoshdan oshganlarda esa 100 barobar yuqori. Shunday qilib, 20 yoshli onalarda Daun sindromi bo'lgan bolani tug'ish ehtimoli 0,1% dan kam, lekin 45 yoshli onalarda 3% gacha ko'tariladi Ya'ni, otaning yoshida farq yo'q. Ko'pincha irsiy kasallik avloddan-avlodga o'tadi, deb o'ylashadi. Kasallik faqat onaning tanasidagi xromosomalarga bog'liq.*

Daun sindromi - bu meyoyning normal kechishi (gametogenez) buzilishi bilan bog'liq. Tuxum va spermatozoidlar mutatsiyaga moyil bo'lganligi sababli, bu sindrom bilan ko'plab bolalar tug'iladi. Daun sindromining yana bir sababi xromosoma tralokatsiyasidir, 15-juft autosomal xromosomalardan biri bo'lib qoladi, lekin ikkinchi xromosomaning bir qismi o'chiriladi va yo'qolgan qismi 21-juft xromosomalardan birining qismiga aylanadi. Daun sindromining sabablaridan biri purin alkaloidlari - kofein, teobromin, teofillinni o'z ichiga olgan moddalarni ortiqcha iste'mol qilishdir.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Daun sindromli bolalar ko'proq erta turmush qurgan va kech farzandli bo'lgan oilalarda uchraydi. Daun sindromli chaqaloqning tug'ilishi nafaqat onaga bog'liq. Xorijiy mamlakatlarda har bir homilador ayol ushbu



sindrom uchun testdan o'tkaziladi. Taxminan homiladorlikning 4-oyligida bolada Daun sindromi bor-yo'qligi aniqlanadi. Onaga bola haqida ma'lumot beriladi. Ammo homilani oldirish onaning ixtiyorida bo'ladi. Ba'zi shifokorlar sabablardan biri sifatida qarindoshlar o'rtasidagi nikohni ko'rsatadilar. Daun sindromi bilan tug'ilgan bolalarni erta davolash kerak. Bunday bolalarni rehabilitatsiya markazlariga jalb qilish, ular bilan psixologik ish olib borish kerak.

Homilador ayollar tez-tez toza havoda bo'lishi va stressdan uzoqroq bo'lishi kerak. Daun sindromi bo'lgan bolalarga kelsak, ular oddiy chaqaloqlar kabi ovqatlanadilar. Biroq, bunday bemorlarga yog'li ovqatlardan voz kechish tavsiya etiladi, chunki ular semirishga moyil bo'lishadi. Vitaminli ovqatlar ko'proq tavsiya etiladi. Daun sindromida ham tishlari bilan bog'liq muammolar bo'ladi. Shuning uchun ular ko'proq kalsiyga boy ovqatlar iste'mol qilishlari kerak. Eng muhimi, Daun sindromi bo'lgan bolalarning oyoqlari va qo'llari tez-tez massaj qilinishi kerak.

Daun sindromi bilan tug'ilgan bolalar haqidagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bunday bolalarda tafakkur cheklangan, katta va mayda qo'l motorikasida muammolar, nutqida kechikishlar, zaif eshitish va zaif ko'rish bilan bog'liq muammolar bo'ladi. Daun sindromi bilan tug'ilgan bolalar aqliy va jismoniy rivojlanishi mumkin.

Daun sindromli bolalarning zaif va kuchli tomonlari bor. Masalan, eshitish va ko'rishdagi nuqsonlar, nutq nuqsonlari bolaning zaifligi bo'lsa, taqlid qilish qobiliyati yuqoriligi ularning kuchli tomonlaridan biridir. Daun sindromli bolalar matnni tezda tushunadilar. Ular kuchli mexanik xotiraga ega. Daun bolalarni jamiyatga moslashtirish, turli tadbirlarda qatnashishlari ular uchun ham foydali ham samaralidir.

Daun bolalarda nutqning kechikishi bu ularga xos, ammo bolani maxsus ta'lim muassasalarga emas, balki ommaviy ta'lim muassasalariga berish samarali natija beradi.

Daun bolalar ommaviy ta'lim muassasalarida o'zi tengdoshlari bilan emas balki o'zidan kichik yoshdagi bolalar bilan birga mashg'ulotlarga qatnashib, bolalar bilan muloqotga kirishishadi, so'ngra ularda nutq kechikishi emas, balki ilgarilash kuzatilishi mumkin. Daun bolalarning tashxisi birinchi navbatda, to'g'ri tashxislangan bo'lishi kerak.

**Psixonevrolog, nevropatolog, otolorengolik, okulist, psixolog** kabi mutaxassislar tomonidan bolani kamchiliklari va nuqsonlari aniqlangan tartibda hamkorlikda kompleks korreksion ish olib boriladi. Daun bolalarni qo'l motorikasini yaxshi rivojlantirish uchun, turli massaj qiladigan apparatlar va massaj koptoklardan, cho'ziluvchi-elastik o'yinchoqlardan foydalanishlari zarur (2-3-4 rasmlar).





2-rasm.



3-rasm.



4-rasm.

Daun bolalarning qo'l motorikasi sust va elastik egiluvchanligi sababli ruchka yoki narsa-predmetlarni tuta olmaslik kuzatiladi. shuning uchun, ularni birinchi navbatda qo'l motorikalarini yaxshilab olish va narsa buyumlar nomlari bilan tanishtirib borishimiz zarur, shunda bolani ham narsa predmet nomini bilishi, ham uni oz bo'lsada nutqda ayta olish faoliyatini yaxshi rivojlantirgan bo'lamiz.

Daun bolalarni qo'l motorikasini rivojlantirishda, albatta ularning qiziqishlariga ahamiyat berishimiz zarur, ular qanchalik narsa predmetlarni o'yinchoqlarni yaxshi ushlay boshlasa nutqini chiqarish yanada tezlashtirgan bo'lamiz.

Daun bolalarda nutqni qay tartibda chiqarish zarur? Biz Daun bolalarni qo'l motorikasini yaxshilab oldik, endi ular narsa predmetlarni tuta oladigan darajaga yetib keldi. Endi ularda nutq rivojlantirishni boshlaymiz. Daun bolalar juda sust yoki giperaktiv bo'lishadi. Shu sabab Daun bolalarni qiziqishlarini inobatga olgan holda mashg'ulotlarni o'yin faoliyati bilan olib boramiz, avvalo unli tovushlardan boshlaymiz, Daun bolalar uchun har xil didaktik metodlarni qo'llaymiz. Keling birgalikda ko'rib chiqamiz:

**1. Nafas mashqlari.** Oxista nafas mashqlarini bajartiramiz, bolaning qo'lga qirqib maydalangan qog'oz parchalarini shisha yoki plastmas idish ichiga solib beramiz va uni puflashini so'raymiz, buni keyinchalik murakkabroq o'yin tariqasida olib boramiz. Harakat tayanch a'zolarini harakatlantirgan holda nafas mashqini yo'lga qo'yamiz. Misol uchun bolaning oyoq kiyimlarini yechib massaj qiladigan to'rtburchak bo'laklangan gilamchalardan sakrab, qo'yilgan idishchalar ichidagi qog'ozni puflashadi, yana sakrashadi idishchalarga puflatamiz.

**2. Artikulyatsion mashqlar** va artikulyatsion apparatni masaj qilish zarur, chunki ularda nutq juda kech chiqqanligi sababli, nutq apparatlari qotib qolgan bo'ladi va tonusi tushishi yuz beradi.

**3. Tovush qo'yish** albatta birdan natija bermaydi, kamida 5 kun yoki 1 haftada natija beradi. Tovushlarni qo'yishda usullarni to'g'ri qo'llay bilish zarur. Daun bolalar hamisha tez zerikib qoladi, ularni qiziqitirib olish zarur, ular o'zlari yoqtirgan metodlarni takroran bajarishni yaxshi ko'rishadi.



Odatda bolalar uchun ko'proq didaktik o'yinlar bilan ishlash samara bergani sabab, biz logopedlar ham korreksion ishni zamonaviy usullarda olib borganimiz ma'qul. Masalan, qog'oz bakallar yordamida ish materialimizni yasaymiz, qog'oz bakallardan ipni teshib o'tqazib olib, uni tarrang tortamiz va bolaning qulog'iga tutamiz, bir uchini o'zimiz ushlab tovush aytamiz va uni takrorlab aytishini so'raymiz, bilingki boshidan bola aytishga urinmaydi, lekin keyingi urinishingiz albatta natija beradi (5-rasm).



5-rasm.

Daun bolalarni nutqini chiqarishda, albatta qum doskalardan foydalanishimiz juda yaxshi natija beradi. Ularda qum doskalar bilan ishlab, nutqiga tovush qo'yish jarayonida barmoqlari yordamida harflarni yozdiramiz, o'zi xohlagan suratlarini chizishni so'raymiz, bu bilan birgalikda, uning mayda qo'l motorikasini rivojlantiramiz (6-rasm).



6-rasm.

“Qum terapiyasi” bolalar psixologiyasini yaxshilashga ham yordam beradi. Ular bilan korreksion ish olib borish jarayonida biz yana bir usuldan, ya'ni “Mikrafon”dan foydalanishimiz mumkin, bu bolalarda o'zining “men”ini shakllanishiga va nutqini rivojlantirishga yaxshi yordam beradi. Bunda Daun bolalar o'zi xohlagan qo'shiqni kuylaydilar va logoped o'rgatayotgan tovushlarni takrorlashadi. Qisqa va oson so'zlarni: ota, ona, opa, aka, bobo, dada, ber, ol, sol, qo'l kabi so'zlarni takrorlab o'rganishadi (7-rasm).



7-rasm.

“Art terapiya” da rangli bo'yoqlar yordamida rasmlarni bo'yatib undagi ranglarni birgalikda tahlil qilish, tovushlarni rangli qalamlar yordamida chizib ko'rsatish, rangli qog'ozlardan yasalishi oson bo'lgan predmetlarni birgalikda yasash, ko'proq korreksion mashg'ulotlarni unga qarovchi tarbiyachisi yoki ota-onasi bilan birga olib borish zarur (8-rasm). Shunda biz kutgan natijaga erishamiz.



8-rasm.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, farzandingizda Daun sindromi borligini bilsangiz, undan voz kechmang. Ular boshqa bolalar kabi yashash, sevilish va qadrlanishga haqli. Farzandingizni seving! Unutmangki, har bir nuqson ortida g'ayritabiiy qobiliyat yashiringan bo'ladi. Bu qobiliyatni rivojlantirish faqatgina sizga bog'liq.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. А. А. Катаева, Е. А. Стребелева. «Дидактические игры и упражнения для дошкольников».
2. Кэрл Тингей-Михаэлис. «Дети с недостатками развития», otanalarga yordam beruvchi kitob.
3. Ю. А. Разенкова. «Игры с детьми младенческого возраста».
4. Джеки Силберг. «Занимательные игры с малышами».
5. Daun sindromiga ega bolalarga dastlabki yordam ko'rsatish markazining «Даунсайд Ап» turkumidagi kitoblari.
6. П. Л. Жиянова. «Социальная адаптация детей раннего возраста с синдромом Дауна».
7. «Маленькие ступеньки», rivojlanishi orqada qolgan bolalarga dastlabki pedagogik yordam dasturi — Makkueri universiteti, Sidney.
8. Yunusov, M. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 1(75). извлечено от [https://science.i-edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6480](https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6480)
9. Yunusov, M. (2021). MAXSUS TA'LIM JARAYONIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://journal.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/711>
10. Axroqova, S. (2021). ИГРА КАК СРЕДСТВО КОРРЕКЦИИ АУТИСТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ТЕРАПИИ ИГРОЙ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/710>

# UZACADEMIA

ILMIY-USLUBIY JURNALI  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
ISSN (E) – 2181 - 1334

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

**VOL 2, ISSUE 1 (25), DECEMBER 2021**  
**PART - 1**